

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,  
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari  
to‘plami

28 aprel 2023-yil

Toshkent sh., O‘zbekiston

Сборник материалов Международной научно-  
практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ,  
ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ»»**

28 апреля 2023 года

г. Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific and  
practical conference

**"TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY,  
ACHIEVEMENTS, PROSPECTS"**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

Ташкентская медицинская академия // Сборник материалов Международной научно-практической конференции «НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ» Сборник материалов конференции // ООО "TIBVIYOT NASHRIYOTI MATVAA UYI" - 2023 - 112 стр.

<b>Главный редактор</b>	Шадманов А.К., ректор Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н.
<b>Заместитель главного редактора</b>	Азизова Ф.Л., проректор по науке и инновациям Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н.
<b>Ответственный секретарь</b>	Высогорцева О.Н., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н.
<b>Редколлегия:</b>	Собирова Г.Н., профессор кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, д.м.н. Жумаева Г.А., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н.

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,  
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami  
28 aprel 2023-yil

Toshkent, O‘zbekiston

Сборник материалов Международной  
научно-практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ,  
ПЕРСПЕКТИВЫ»**

28 апреля 2023 года

Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific  
and practical conference

**«TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY, ACHIEVEMENTS,  
PROSPECTS»**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

## GEPATITNI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

A'zamjonov Azizbek Akramjon o'g'li, Abdurasulova Mohlaroy Baxtiyorjonovna, Xasanova Madinabonu Ilshodovna, Raximova Xusnidaxon Abdukarimovna

### *Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti farmakologiya fani o'qituvchisi*

**Maqsad:** Gepatitni oldini olish uchun, zamonaviy profilaktik davolash maqsadida ismaloq o'simligidan foydalanish.

Gepatit – bu bir qator sog'liq muammolarini keltirib chiqaradigan va o'limga olib keladigan jigarining yallig'lanishi. Gepatit virusining beshta asosiy shtammi mavjud, ular A, B, C, D va E turlari deb ataladi. Ularning barchasi jigar kasalligini keltirib chiqaradi, kasallikning og'irligi, geografik tarqalishi va oldini olish usullari. Xususan, B va S turlari yuz millionlab odamlarda surunkali kasalliklarni keltirib chiqaradi va siroz va jigar saratonining eng keng tarqalgan sababi hisoblanadi. Dunyo bo'ylab taxminan uch yuz million dan ortiq kishilar hepatit B va S bilan kasallangan, ammo ular orasida sezilarli farqlar mavjud va davolash imkonsizligicha qolmoqda.

Gepatit kasalliklarida biokimyoviy qon testida jigar fermentlarining konsentratsiyasi – ALT (alanin aminotransferaza) va AST (asparatit aminotransferaza) ortishi kuzatiladi. AST ko'payishidan ko'ra ALT ning oshishi jigar shikastlanishiga xosdir.

ALT (alanin aminotransferaza) – jigar hujayralaridagi ferment bo'lib, siz iste'mol qilgan ovqatlardan oqsillarni energiyaga aylantirishga yordam beradi. Agar sizning jigar hujayralaringiz yallig'langan yoki shikastlangan bo'lsa, ular ushbu fermentlarning ko'proq miqdorini oqishi mumkin, bu ularning qon oqimiga tushishiga olib keladi.

Folat ba'zi oziq-ovqatlarda mavjud bo'lgan B9 ning tabiiy shaklidir. Folik kislota B9 ning suniy shakli bo'lib, qo'shimchalar sifatida ishlatiladi va ba'zi qayta ishlangan ovqatlarga qo'shiladi. Sizning tanangiz ham ularni turli yo'llar bilan qayta ishlaydi.

Ular bir xil bo'lmasa-da, foliy kislotasi ham, foliy kislotasi ham jigar sog'lig'i va ALTni pasaytirishda foyda keltiradi.

Folik kislotaning asosiy oziq-ovqat manbalari asosan ismaloq va qushqo'nmas, marul, brokkoli, bok choy, yashil sholg'om, lavlagi, quritilgan yoki yangi loviya va no'xat kabi yashil va bargli sabzavotlar tarkibida bo'ladi. Ismaloq barglarining kimyoviy tarkibi uglevodlar, oqsillar, tolalar, vitaminlar (A, B9, C, E, K), minerallar (natriy, kaliy, kaltsiy, temir) va yuqori miqdorda bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotlar folat etishmovchiligini ALT darajasining oshishi va jigar shikastlanishi bilan bog'ladi va foliy kislotasi jigar shikastlanishi bo'lgan odamlarda ALTni kamaytiradi.

Folik kislota etishmovchiligi ALT darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Foliy kislotasining kunlik dozasi 800 milligramm, ayniqsa erkaklar va ALT darajasi yuqori bo'lgan odamlarda ALT darajasini pasaytirishga yordam beradi.

**Xulosa:** ALT darajasi hepatitni erta tashxislash uchun ham qo'llaniladi. Ushbu fermentning qiymatlari kasallikning birinchi belgilari boshlanishidan ancha oldin oshadi, bu esa dastlabki bosqichda patologiyani aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun profilaktik davolash maqsadida ismaloq o'simligini istemol qilish tavsiya qilinadi.

## HAMSHIRA VA MA'NAVIYAT

Abilov O'rol

### *Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori*

Qadimdan har bir mamlakatda sog'liqni saqlash tizimi davolash ishlari bilan bir vaqtda aholining ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirish va uni kamolotga yetkazish borasida asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib xizmat qilgan. Jumladan O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimi xuddi shunday imkoniyatga ega ekanligini hisobga olib, mazkur yo'nalishdagi xizmat xodimlari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish ham-

da uning samaradorligini oshirishda oliy ma'lumotli vrachlarning roli qanchalik beqiyos va zaruriy holat bo'lsa, bunda hamshiralarning ham o'rni borligi kasbiy talablar nuqtai nazaridan shunday mexanizmning zaruriy bo'g'ini bo'lib hisoblanishi tarixiy haqiqatdir.

Shifokorlar inson salomatligini ilmiy asosda ilmiy muxofaza qilish yo'llarini qidirgan va uni bevosita amaliyotga joriy qilish, ya'ni bemorlarga qo'llash muolaja ishlarini esa, asosan hamshiralar bajaragan. Aniqroq qilib aytganda, vrach bemorga tashxis qo'yib, kasallikning davolash yo'llari va usullarini belgilaydi. Ayni tashxis va usullar orqali bemorni davolash muolajalarini qay darajada sifatli va aniq ijrosini ta'minlash asosan hamshiralarning zimmasiga tushadi. Demak, bemorning sog'ayib oyoqqa turishi, qo'yilgan tashxis va uni qay darajada sifatli, malakali amalga oshirishga, ko'p jihatdan hamshiralarning shifokorlik tajribalari, malakalariga bog'liq bo'lib hisoblanadi. Bu masalaning bir jihati. Masalaning ikkinchi jihati, hamshiralar o'zlarining xushmuomalaligi va xolisligi, madaniy darajasining yuksakligi bilan boshqalardan ajralib turgan. Bu borada boshqalar ulardan andoza olishga harakat qilganlar.

**Hamshira** - o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimi. Davolash-profilaktika muassasalarida hamshira vrach yordamchisi bo'lib, u bilan hamkorlikda ish olib boradi. Hamshira bemorlarni parvarish qilish, haroratni o'lchash, dori tarqatish, davolash muolajalari (kompres, gorchichnik qo'yish va h. k.) va b. vazifalarni bajaradi. Hamshiralar turli tibbiyot muassasalari (kasalxona, poliklinika, dispanser, sanatoriy va b.) da, shuningdek, yasli va bolalar bog'chasida xizmat qiladi. Hamshiralikka tibbiyot texnikumlari va kollejlari-da o'qitiladi. Toshkent tibbiyot akademiyasida esa, bu borada alohida fakul'tet mavjud bo'lib, unda Oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlanadi. Jahondagi ilg'or tajribalardan kelib chiqib, O'zbekistonda o'rta va oliy ma'lumoti hamshiralar tayyorlash bo'yicha o'ziga xos tizim yaratilgan va bu jarayon uzluksiz takomillashtirilmoqda. Hozirgi kunda Toshkent Tibbiyot Akademiyasi va tibbiyot institutlarining "Oliy hamshiralik ishi" bo'limlarida anesteziologiya va reanimatsiya, xirurgiya, akusherlik va menejment yo'nalishlari bo'yicha uch yarim mingdan ortiq oliy ma'lumotli bakalavr hamshira tayyorlandi, 100 nafardan ortiq hamshira magistr darajasiga ega. 12 may kuni "Xalqaro hamshiralar kuni" butun dunyoda, shu jumladan, O'zbekistonda ham keng nishonlanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda shifokor va hamshiralar soniga bo'lgan jihatidan rivojlangan davlatlardagidan deyarli farq qilmaydi. Aniqroq ifodalaydigan bo'lsak 2021 boshlaridagi ma'lumotlarga qaraganda Yevropa va Amerika mamlakatlarida har 10 000 kishiga 80 nafardan ortiq (81 va 83) hamshira to'g'ri kelsa, O'zbekistonda 10 000 kishiga 107 nafar hamshira to'g'ri keladi va ular mamlakat aholisining ya'ni, inson salomatligining muxofazasida turibdilar. Agar ushbu raqamlarning salmog'iga e'tibor berilsa, O'zbekiston hamshiralari juda katta kuch ekanligiga amin bo'lamiz. O'ylab qaralsa, bunday katta va imkoniyati keng kuchdan nafaqat davolash ishlarida balki, shifo maskanlaridagi muassasa xodimlari o'rtasida turfa xil ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borishda ham istiqbolli natijalarga erishish mumkin.

Negaki, yuqorida aytib o'tganimizdek, shifo maskanlari qadim-qadimdan ma'naviyat o'choqlaridan biri sifatida faoliyat ko'rsatib kelgan va bunga xalqning ishonch e'tiqodi yuqori bo'lgan. Shu bois, insonlarda davolash ishlarining sifati bilan barobarida ma'naviy barkamollik xususiyat va ko'nikmalari ham osha borgan. Ayni imkoniyat va xususiyatlarni hisobga olib, mazkur yo'nalishdagi xizmat xodimlari va aholi o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligini oshirish borasida hamshiralarning alohida o'rni borligini e'tiborga olish zarur.

Bu borada davolash ishlari va chog'lom turmush tarzini omma o'rtasida keng joriy qilishning tarkibiy qismi sifatida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish, uning amaliyotini ta'minlash, nazorat qilish maqsadida barcha viloyat boshqarmalarida va umuman markaziy shifoxonalarida shuningdek, sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'linmalarida rasman ma'naviy-ma'rifiy ishla bo'yicha olib borilishi lozim bo'lgan ishlarda hamshiralarning kuch va salohiyatlaridan samarali foydalanish va ularni mazkur faoliyatga

yanada kengroq miqyosda jalb qilish ishning ommaviylik xususiyatini oshirish barobarida imkoniyatlar diapazonining ko'lamini oshiradi.

Shuning uchun ham ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni davolash-profilaktika muassasalarida targ'ib va tashviq qilish hamda amaliyotini ta'minlashda asosiy vositalardan biri sifatida ko'p sonli tibbiy hamshiralar faoliyati bilan qshib olib borilishini tashkil qilishni kuchaytirish ijobiy natijalar berishi barcha shu soha rahbarlarining e'tiborida bo'lishi lozim.

Sohaning samaradorligini oshirish maqsadida:

1. Davolash ishlari va sog'lom turmush tarzini omma o'rtasida keng joriy qilishning tarkibiy qismi sifatida manaviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish, uning amaliyotini ta'minlash, nazorat qilish maqsadida barcha viloyat boshqarmalarida va tuman markaziy shifoxonalarida shuningdek, sog'liqni saqlash tizimining barcha bo'linmalarida rasman manaviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mutasaddilarni tayinlash. Mutasaddilikni Boshqarma va bo'linmalarda birinchi rahbarning o'rinbosarlaridan biriga yuklash ham mumkin. Mazkur ishlarga jalb qilinganlarni moddiy jihatdan rag'batlantirish imkoniyatlarini topish.

2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni muvofiqlashtirish, uning amaliyotini nazorat qilish, natijalarini tahlil qilish hamda monitoringini olib borish, yuqori tashkilotlarga bu haqda hisobot berish, samarali ishlarni ommalashtirish vazifalarini ta'minlash maqsadida ushbu yo'nalish faoliyati bilan bog'liq xodimlarni Sog'liqni saqlash vazirligi shtat jadvali tarkibiga rasman kiritish.

3. Sog'liqni saqlash tizimidagi tashkil qilinadigan barcha ommaviy-madaniy ishlar va shu yo'nalishdagi qo'rik tanlovlar, barcha ommaviy axborot vositalarining faoliyatini milliy mafkura va sog'lom turmush tarzi tamoyillarini keng targ'ib qilish, ko'lamini, samaradorligini oshirish hamda natijalarni tahlil qilib, ularni muvofiqlashtirish, monitoringini olib borish maqsadida vazirlikning «Vazirlikning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchi» xizmati hujjatlariga muvofiqlashtirish.

4. Ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni davolash-profilaktika muassasalarida targ'ib va tashviq qilish hamda amaliyotini ta'minlashda asosiy vositalardan biri sifatida ko'p sonli tibbiy hamshiralar foliyati bilan qo'shib olib borishni tashkil qilish maqsadga muvofiq keladi.

## **OLIIY O'QUV MUASSASALARIDAGI TALABALARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA RIOYA QILISHI BO'YICHA SO'ROVNOMA TAHLILLARI**

Ahmedova D.Sh., Toxtamuratova Z.Sh., Rayimberdiyev E.D

### ***Toshkent tibbiyot akademiyasi***

**Tadqiqot maqsadi.** Oliy o'quv muassasalari talabalarini sog'lom turmush tarziga rioya qilishini o'rganish.

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tadqiqotda 110 ta talabalar qatnashdilar, ushbu qatnashchilarga maxsus tuzilgan 12 ta savoldan iborat bo'lgan so'rovnomaga ixtiyoran javob berishi taklif qilindi. So'rovnomada asosan ovqatlanish tartibiga va jismoniy faollikning darajalariga urg'u berilgan. So'rovnoma yig'ish jarayoni online hamda offline formatda o'tkazildi. Online so'rovnomadan 90 ta talabalar o'tishdi, oflayn ko'rinishidan esa 20 ta. To'ldirish jarayonida talabalar o'zining yoshi, jinsi, vazni va bo'yini ko'rsatib o'tishdi.

**Natijalar.** So'rovnomadan o'tgan talabalar orasida 35 ta (32%) erkak, 75 ta esa (68%) ayol, o'rtacha yoshi  $22,34 \pm 2,12$  chiqqan. 17% (19 ta respondentlar) 1-2 kurs talabarlari, 72% (79) - 3-4, 11% (12) - 5-6. Tana vazni indeksi (TVI) ko'rsatkichlari analizlarida aniqlandi: normal vazn 54%, ozg'inlik - 6%, ortiqcha vazn - 28%, semizlikni I darajasi - 12%. Talabalarining javoblarini hisoblashda quyidagi natijalar olindi.

«Inson salomatligi nimaga ko'proq bog'liq?» savoliga respondentlar quyidagi javoblarni belgilashdi: "Irsiyatga" - 0%, "Tibbiy yordam sifatiga" - 0%, "Atrof muhit holatiga" - 0,6%, insonning o'zi va uning turmush tarziga - 97,8%, boshqa javoblar - 1,6%.



СОДЕРЖАНИЕ	
<i>A'zamjonov A.A., Abdurasulova M. B., Xasanova M.I., Raximova X. A. GEPATITNI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV</i>	2
<i>Abilov O'rol HAMSHIRA VA MA'NAVIYAT</i>	2
<i>Ahmedova D.Sh., Toxtamuratova Z.Sh., Rayimberdiyev E.D OLIY O'QUV MUASSASALARIDAGI TALABALARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA RIOYA QILISHI BO'YICHA SO'ROVNOMA TAHLILLARI</i>	4
<i>Allayeva M.J., Achilov .D.D. DIABETNING DITIZON MODELIDA UMUMIY LIPIDLAR DARAJASINI O'SIMLIGI EKSTRAKTINING GIPOLIPIDIMIK HAMDA GIPOXOLESTERINEMIK TA'SIR SAMARADORLIGI</i>	5
<i>Atamuratova F.S.IBN SINO SHIFOKOR AXLOQI HAQIDA</i>	7
<i>Azizov A.A. O'ZBEKLARDA ANIMALOTERAPIYA: ETNOGRAFIK QAYDLAR TAHLILI</i>	8
<i>Biykuziyeva A.A., Muxiddinova F.M, Sodikova N.S., Turdialiyeva Sh.U. IBN SINO TA'BLIMOTIDA BADAN TARBIYA TADBIRI – DAVOLOVCHI JISMONIY TARBIYA TO'G'RISIDA</i>	9
<i>Bo'riyev O., Iskandarov Sh. ABU RAYHON BYERUNIYNING ASARLARIDA ZARDUSHTIYLIK BILAN BOG'LIQ QARASHLAR</i>	10
<i>Bo'riyev O., Iskandarov Sh. «HUDUD UL-OLAM» VA UNDA QASHQADARYO VOHASI SHAHARLARI TAVSIFI</i>	12
<i>Ergasheva N.O. BO'G'IM KASALLILARNI DAVOLASHDA APITERAPIYANING O'RNI</i>	14
<i>Fayzullayeva O.U., Nazirtashova R.M. QANDLI DIABET KASALLIGI VA UNI DAVOLASHDA TOPINAMBUR O'SIMLIGIDAN FOYDALANISH</i>	15
<i>Ganijonov H. THE ROLE OF BEHAVIOR IN THE EARLY DETECTION OF SCHIZOPHRENIA</i>	16
<i>Hyangmi Gavart_KOREAN MEDICAL BOOK REPORT IN EUROPE</i>	17
<i>Jumanazarov X.S. O'ZBEK XALQINING TABOBAT AN'ANALARI TARIXI</i>	18
<i>Kim Taewoo THE EMERGENCE OF NEW TRADITIONAL ACUPUNCTURE PRACTICES IN KOREAN MEDICINE: A HISTORICAL AND ANTHROPOLOGICAL APPROACH</i>	20
<i>Mahmaraimov Sh.T., Soatova M.B. XONDROITIN SULFAT VA CENTELLA ASIATICA EXTRACTINI BIRGA QO'LLAGANDA TIZZA BO'G'IMI ARTROZIDA OG'RIQQA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH</i>	20
<i>Mahmaraimov Sh.T., Chutboev B.R., Choriev M.Yu. CENTELLA ASIATICA EXTRACTINING TIZZA BO'G'IMI ARTROZIDA YALLIG'LANISHGA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH</i>	21
<i>Maxmudov L.Yu. TIB QONUNLARIDA KASALLIKLAR, ULARNING ASOSIY SABABLARI VA KO'RINISHLARI HAQIDA YORITILISHI</i>	22
<i>Maxsumov Sh.M., Zayseva O.A. O'ZBEKISTON FARMAKOLOGLARINING FITOTERAPIYA RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI</i>	24
<i>Nazarbaiuly B. BASICS OF TRADITIONAL MEDICINE</i>	25
<i>Niyozova N.S. QADIMGI SHARQ TIBBIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i>	26
<i>O'tayev G'G' . YUQUMLI KASALLIKLARNING RIVOJLANISHIDA IBN SINO AMALIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI</i>	27
<i>Orazgalieva M.T. Aimagambetov M.Zh., Akbayeva M.M., Orazgalieva M.T., Shortombayev A.A., Yermukhambetov B.Y. ALGORITHM OF PROACTIVE THERAPY OF HEMOSTASIS DISORDERS IN PATIENTS WITH MECHANICAL JAUNDICE IN THE INTRA - AND POSTOPERATIVE PERIOD</i>	29
<i>Qosimjanova N. A., Raximova X.A. ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTIDA FARMASEVTIKA</i>	30